



**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
KAFEDRASI**

**TARIX FANIGA OID TADQIQO‘TLAR –
YOSHLAR NIGOHIDA**

**TALABALAR ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO‘PLAMI**



TOSHKENT – 2026

Mas’ul muharrir:

I.Bobojonov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati a’zolari

I.Xo‘jaxonov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.Ulfatillayeva – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar

H. Hamidov – Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası professori, Tarix fanlari bo‘yicha doktori

N.Sattorov – O‘zMPU “Jahon tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universitetida talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlash va tadqiqot olib borishga yo‘naltirish maqsadida Universitet Rektori buyrug‘i bilan 2026-yil 18-fevral kuni “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası tomonidan “Tarix faniga oid tadqiqotlar – yoshlar nigohida” mavzusida tashkil etilgan talabalar ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezislari o‘rin olgan.

Unda talabalar, magistrantlar hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy faoliyati tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlari natijalari o‘rin olgan.

Anjuman materiallaridan tadqiqotchilar, pedagoglar, oliy o‘quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

To‘plamdagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas’uldir!

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIKKA OID TADQIQOTLAR

TURK TARIXSHUNOSLIGIDA AFET INAN VA UNING TADQIQOTLARINI O'RNI

Xolmatova Sarvinoz

Tarix 501-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.f.d, dotsent Kamolov Jahongir Mamasidiqovich

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Turk tarixshunosligida muhim rol o'ynagan, qolaversa taqdirida Turkiya Respublikasini birinchi rahbari Mustofo Kamol Otaturkni asrab olingan qizi sifatida uning tarix sohasidagi ishlarini davom ettirgan Afet Inanning Turk tarixshunosligiga qo'shgan hissasi va uning tadqiqotlari yo'nalishlari haqida ma'lumotlar tahlil qilingan. Uning tarix, antropologiya, sotsiologiya va arxeologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarining ahamiyati va o'rnini qisqacha ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Afet Inan, tarixshunoslik, antropologiya, sotsiologiya, ilmiy tadqiqot, Jeneva, Mustofo Kamol, arxeologiya, professor, Anadolli.

Turk tarixshunosligi bugungi kunda tarix fani sohasida yuqori salohiyatga ega ko'plab yetuk tadqiqotchilari bilan tanilgan. Tarix sohasidagi tadqiqotlar Usmonlilar imperiyasi davrida boshlangan bo'lib, bu Turkiya respublika bo'lgandan keyin ham davom etdi. Turk tarixshunosligida ayniqsa turkiy xalqlar hayotiga oid manbalar ayniqsa XX asrning 50-60 yillarida nihoyat darajada tezlashib juda qimmatli tadqiqotlar dunyo yuzini ko'rdi. Shubhasiz bu borada turk tarixshunosligiga katta hissa qo'shgan tadqiqotchilardan biri Aishe Afet Inandir. Afet Inan Turkiya Respublikasining birinchi tarix professorlaridan biri bo'lib, Mustafa Kamol Otaturkning asrab olingan qizi sifatida tanilgan.[1,- B.24.] U Turk tarixi tarixshunosligini yozishda muhim rol o'ynagan va turk antropologiyasini shakllanishi haqida tadqiqotlar olib borgan. U Salonikadagi turk oilasida 1908 yil dunyoga kelgan bo'lib, otasi Ismoil Haqqi Bey va Shahzana Xonim edi.[2,-B.43.]Yoshligi turli urushlar va isyonlar davriga to'g'ri kelgan bo'lib, oila dastlab Adapazari hijrat qilgan, u yerda Afet boshlang'ich maktabga borgan. Keyin Anqara, Mixalichchik, Karaog'lan va Bigo'ga ko'chib o'tgan.

Onasidan erta ayrilgan Afet mustaqil ta'lim olishni boshlaydi va o'qituvchi bo'lishga qaror qiladi. Dastavval bir yil Alanyada, 1922-yildan boshlab Elmalida o'qituvchilik malakasini olib, Elmali qizlar maktabiga rahbar etib tayinlangan.

Afet 1925-yilda Bursa qizlar pedagogika kollejini bitirib, Izmirda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lgan va shu yil oktabrda Izmirga tashrif buyurgan Mustafa Kamol Otaturk bilan uchrashadi. Bu hayotida katta burilish bo'ldi. Otaturk homiyligida Afet 1925-yilda fransuz tili o'rganish uchun Lozanna (Shveysariya)ga yuborildi.[3, -B.52.] Shveysariyadan qaytgach, 1927-yilda Istanbuldagi fransuz oliy maktabi Lysee Notre Dame de Sionda tahsil oldi. Ayni shu paytdan uni tarixga kirib kelishi boshlandi. Afet dastlab Anqaradagi Musiqiy Muallim maktabida "Tarix va yurt bilimi o'qituvchisi" sifatida ish boshlaydi. O'sha paytlarda mamlakatda maktablar uchun darsliklar juda kam bo'lib, buni davlat rahbari Otaturk ham bir safar bu holatni tilga olgan edi. Shu bois Afet fransuz qizlar maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq "Fuqorolik yo'riqnomasi" kitobidan tarjimalar qildi. U o'zining tarjimalari va Otaturkning maqolalarini birlashtirib, "Vatandoshlar uchun madaniy bilimlar" kitobini nashr ettirdi. [4, -B.54.] Ayollar huquqi bilan qiziqqan Afet Inan o'sha paytlarda turk ayollarini huquqlari uchun kurashayotgan hukumat shaxsan Otaturkning topshirig'i bilan Turk o'chog'i nomli konferensiya tashkil qiladi. Bu uning hayotidagi birinchi katta anjuman bo'lgani uchun Afet mashxur xatib Hamidullah Suhpi Beydan darslar oladi. Otaturk Afet Inanning Turk o'chog'i tashkiloti nizomidagi 2 va 3-moddalarini tasnif qilib berishini so'ragach, 1930-yil aprel oyida tashkil qilingan Turk o'chog'i tashkilotining kongresida Oqsaroy delegatsiyasi a'zosi sifatida qatnashadi. Turk o'chog'i tashkilotining maqsadi, vazifasi, ishlash tartibi haqida nutq o'qiydi va keyinchalik "Turk tarix tezisi" sifatida nom bergan tezis haqida o'z fikrlarini bayon qiladi. Turk o'chog'i tashkiloti keyinchalik Otaturkning buyrug'i bilan yopilib, uning o'rniga "Turk tarixi tadqiq jamiyati" nomini olgan tashkilot tuziladi. 1935-yilning 3-noyabr kuni "Turk tarix muassasi" nomi ostida bugungacha faoliyat yuritayotgan yangi ilmiy muassasa o'z faoliyatini boshlaydi. Afet xonim 1935-1952 va 1957—1958-yillar davomida unga rahbarlik qiladi. Afet Inan 1935-1938 yillarda Jenevada doktoranturada tahsil olib, shveysar antropologi Eugane Pittard rahbarligida 1939-yilda sotsiologiya bo'yicha fan doktorligi ilmiy darajasini oldi. 1950-yilda u Anqara universiteti professori bo'ldi. Keyinchalik Afet Inan qator ilmiy ishlar qildi, u Anado'lida 64 ming skeletni o'rganib, Turk xalqining antropologik xususiyatlarini isbotlashga harakat qildi. Uning muhim ishlaridan yana biri turk tadqiqotchilari bilan hamta'sisichilikda Turk Tarixi muassasasiga asos soldi. Afet Inan tarix, antropologiya, arxeologiya, sotsiologiya va siyosatga oid 50 ga yaqin kitob va maqolalar muallifi bo'lib, uning ilmiy ishlari bugungi kun uchun muhim tadqiqot bo'lib xizmat qilmoqda.

Afet Inanning 1989 yilda nashr etilgan "Otaturkdan maktublar" kitobi o'z ichiga quyidagi bo'limlarni oladi. Kitob: O'tgan kunlarimdan, Otaturkning

xatlari, Otaturk imzosi bilan kelgan telegrammalar, Ismet Inonudan Jenevaga kelgan telegrammalar, Men yozgan xatlar, Shveysariyaning Jeneva universitetida o'qigan davrimda tayyorlagan va nashr etgan mavzularim, Ushbu ro'yxatlardagi mavzular bo'yicha ba'zi izohlar, Ilmiy ishlarim bilan bog'liq ayrim xatlar, 1938-yilda Jeneva universitetining Akademiya kunidagi marosim, Prezidentlik devoni bosh kotibi va bosh yaveri imzosi bilan kelgan ayrim telegrammalar, 1930–1980-yillar oraliq'ida kitob ko'rinishida chiqqan nashrlarim ro'yxati kabilar bo'limlarni o'z ichiga olgan.[5, - B.21.]

Otaturk xatlari ichida uni onasi, bosh vazir Ismet Inonu, Ali Fuod poshoga, Sabiha Gokchenga, Afen Inanga va yana bir qancha davlat amaldorlari, do'stlariga yozgan maktublar o'rin olgan. Afet Inanga yozgan maktubida Mustafo Kamol Otaturk quyidagilarni bayon qiladi:

AFET INANGA MAKTUBI

Savarona yaxtasi, 14.06.1938

Afet,

“H. R. Soyak orqali mendan xat kutayotganingni bildirganding. Istaging har kuni yodimda. Og'zaki ravishda Jalolga (Ünerga) telefon qilib yetkazish uchun aytib turibman. Ammo hozircha o'zim bir qarorga kelmadim.

Vazifam shudir: mening fikrimcha, shifokorlarning noto'g'ri qarash va hukmlari tufayli kasallik to'xtamadi, balki kuchaydi. O'z vaqtida bo'lmagan holda o'rindan turish, yurish, shuningdek burunga qilingan tampon (tutilish)dan keyingi qusish natijasida ilgari qilingan dam olish choralari behuda ketdi. Istanbulga kelgach, Hukumat fikrini olishga zarurat sezmasdan Fissenger (professor)ni chaqirtirdi. Qayta tekshiruv va ko'rikdan o'tkazildim. Jigarimni avvalgi holatidan farqsiz deb topdilar, qornim esa bir necha kilo yig'ilgan suyuqlik va gaz tufayli shishgan va shakli o'zgargan holatda ekan. Hozircha 15-iyulgacha yangi davolash va yangi rejim asosida mutlaq dam olishni zarur deb topdilar. Buning asosi ham krovat va shezlongda yotib dam olishdir. Bu muddat tugagach, Fissenger yana keladi.

K. Otaturk” [6,- B.33.]

Bundan ko'rinadiki bu xat yozilayotganda Afet Jenevada tahlis olayotgan bo'lib, Otaturk unga ahvolidan havotir olganiga munosabat bildirgan. Shu yillarda Mustafo Kamol kasallanib bir muddat davolanadi va ko'p o'tmay 1938 yil noyabrda vafot etadi. [7, - B.33]

Afet Inanni asarlari ichida “Life And Works Of Piri Reis” yani Piri Reisni hayoti va faoliyati asari alohida qimmatlidir. Afet Inan o'z asarini kirish qismida quyidagicha so'z boshi bilan boshlagan.

“Reis xaritasini avval ko'raylik. Kelinglar, shu va boshqa xaritalarni yaratgan muallif yashagan davrni biroz bo'lsa ham “yashab ko'rishga” ham

urinaylik. Axir, ular sivilizatsiya tarixining turkcha tarixiga oid yaxshi va ishonchli misollardir. Agar o'quvchilarim birdaniga yuz yillar bilan qarishdan cho'chimasalar, ular XV va XVI asrlarga menga hamroh bo'lishlari kerak. Bu – o'tmishga sayohatimizning ikkinchi bekati bo'ladi. Bu safarda biz O'rta yer dengizi sohillari va orollarini, o'sha davrda turkcha nomlar berilgan G'arbiy Afrikaning ayrim hududlarini, Atlantika okeanidan naridagi, “Yangi Dunyo” deb nomlangan qit'adagi ba'zi joylarni va Shimoliy Amerikaning o'zini ko'zdan kechiramiz. Bu sayohatimiz bizga XVI asr dunyosida bir turk olimini – uning tadqiqotlaridagi uslubiy izlanishlari va samarali jihatlarini – yanada yaxshi tanish imkonini beradi. Shuningdek, Piri Reisning boshqa asarlarini ham biror kishi yuzaga chiqarishini tilab qolaman. Bu mavzu bo'yicha mening kitobim 1954 yilda, Piri Reisning vafotining 400 yilligi munosabati bilan, turk va ingliz tillarida nashr etilgan edi. “Fevral 1974 Prof. Dr. A. Afet İnan” [8, - B.55]

Bu asarida Usmonlilar saltanatining buyuk admirali Xayriddin Barbarossa bilan birga turk flotida xizmat qilgan va ko'plab hududlarga suzgan Piri Reis va uning Bahriya asari haqida ma'lumotlar berilgan. Afet Inanning bu asari nafaqat turk tarixshunosligini balki Yevropa, Osiyo, Afrika tarixi uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Afet Inanning keyingi asari “Respublikaning 50 yilligiga bag'ishlangan qishloqlarimiz” yani “Cumhuriyetin 50. Yılı İçin Köylerimiz” kitobi bo'lib, asar 1978-yilda Turk Tarix Jamiyati (Türk Tarih Kurumu) tomonidan nashr etilgan. Kitobda Respublikaning 50 yilligi arafasida Turkiya qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati va “Ideal Respublikachi qishloq” loyihasi doirasidagi qarashlari yoritiladi.

Afet Inan bu asarini so'z boshida shunday jumalarni keltiradi: “Yurtimiz shahar va qishloqlari bilan bir butun hisoblanadi. Geografik sharoitlari, ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lgan hududlarimiz har jihatdan ijtimoiy hayotimizda muhim o'rin tutadi. Men Turkiyaning deyarli barcha hududlarini turli yo'llar bilan kezib chiqdim va tanidim. Bolaligimda otam O'rmon muftishi bo'lgani uchun tez-tez joy almashtirar, shu sababli turli viloyat va tumanlarda oilamiz bilan yashardik. Bular men uchun juda qiziqarli va boy tajriba bo'ldi. 67 viloyatimizdan bugun faqat 7 tasigagina bora olmaganman. Albatta, ko'rganlarimizdan qishloq va atrof-muhitdagilarni ham xulosa qilish kerak. Men qishloqlarimizda odamlar bilan suhbatlashishni, ularni atrof-muhitida tanishni juda yaxshi ko'raman.

Turkiyaning turli mintaqalarini geografik jihatdan o'rganadigan bo'lsak, juda xilma-xil manzaralarga duch kelamiz. Qora dengiz qirg'oqlarida dengiz bilan uyg'unlashgan naqadar go'zal qishloq va shaharlarimiz bor. Yashil yonbag'irlarda tomlari kiremit bilan qoplangan qishloq uylari baxtli oila

o'choqlarining ramzidek ko'rinadi. Bu yerlardagi ijtimoiy hayotda uy va dala ishlari ko'proq ayollar tomonidan amalga oshiriladi. Chunki erkaklar yoki dengiz mahsulotlari bilan shug'ullanadilar, yoki boshqa shaharlarda yilning ma'lum fasllarida boshqa ishlar bilan band bo'ladilar. Iqtisodiy tuzum asosan shunday shakllangan".[9, - B.3.]

Bu asarning muhim jihati shundaki unda 40-50 yillarda Turkiya qishloqlari hayoti, xo'jaligi, aholisi va uning tarkibi, ularning nima istemol qilishi, hududlarning iqlimi haqida juda qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asar geografik, sotsiologik, etnografik jihatdan keying tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Afet Inanning yana bir qimmatli asari "Memor Kocha Sinon" kitobi bo'lib, Memor Sinon Usmonli davrining eng buyuk me'mori bo'lib, klassik usmonli me'morchiligi uslubini shakllantirgan va takomillashtirgan shaxs bo'lgan. Bu asar 1968 yilda yozilgan bo'lib, Afet Inan asar haqida shunday yozadi.

"Memor Kocha Sinon XVI asr turk dunyosining san'atkor me'mor-muhandisidir. U turk xalqiga, idealizmdan ilhomlanib, eng ulkan me'moriy asarlar bino etib tuhfa qilgan. Uning shaxsidagina butun bir asr me'morchiligi va bunyodkorligini ko'rish mumkin. Sinan, shubhasiz, o'z davrining yaratuvchi san'at dahosi edi. Biroq uni asrlar qa'riga borib yetgan turk va dunyo me'moriy asarlarining va o'z asrining turk qudrati va bunyodkorligining bir ramzi sifatida ko'rish lozim. U – XVI asr turk-usmonli hayotining ichida, ongida tasavvur etgan asarlarini moddiy va shakliy holga keltirish baxtiga muvassar bo'lgan ijodkordir. Turk yurtlarida turk uslubini yashatgan, sog'lom va san'at jihatidan yetuk bo'lgan asarlar yaratdi. Sinan o'zi bilan birga mehnat qilgan me'mor, muhandis va barcha san'atkorlar hamda ishchilari bilan keyingi avlodlarni ham hayratga soladigan obidalar qoldirdi. U, bir turk dahosi sifatida turk sha'niga, insoniyatga eng nodir asar bergan san'atkor sifatida tarixda o'rin olgan. Madaniyat va obida yaratgan har bir shaxs va xalq, albatta, barcha avlodlar tomonidan esga olinishga loyiqdir. Sinan haqida juda ko'p asarlar yozilgan. Meni ayniqsa bu masala ustida ishlashga undagan narsa – Memor Sinonning mehnat va ijod mahsullarini yuzaga keltirgan bir shaxs sifatida XVI asr turk dunyosida juda katta o'rin tutganidir.

Fevral 1968

Prof. Dr. A. Afet Inan" [10,-B.7.]

Afet Inanning bu asari Usmoniylar davri memororchiligi, tarixiy obidalari va ularning aksariyatini muallifi Memor Ko'cha Sinon haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Shuningdek, bu memoriy inshootlar kimlarning topshirig'i bilan qad rostlaganin haqida ham ma'lumotlar olish mumkin.

Afet Inan tomonidan yana bir qancha asarlar yozilgan. Xususan qadimgi Misr tarixiga oid “Qadimgi Misr tarixi va madaniyati”, “Otaturk va turk ayolining huquqlarini qo‘lga kiritishi: tarix davomida turk ayolining huquq va burchlari”, “Otaturkning xotiralari”, “Kamol Otaturkni xotirlab” va boshqalarni aytish mumkin. Afet Inanning asarlari bugungi kungacha o‘z dolzarbligini yuqotmagan va hozirgacha turk tarixshunosligi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Buyuk olima haqida juda ko‘plab xotira asarlari yozilgan bo‘lib, ular bu turk qizini buyuk xizmatlari va tadqiqot ishlarini e‘tirof etishgan. Xususan, Afet Inan haqida uning o‘g‘li Ari Inan tomonidan “Professor. Doktor Afet Inan” degan xotiralar kitobi yozilgan. Bundan tashqari Savash Erman u haqida “Afet Inan. Respublikaning ilmi insonlari” asarini, Adolat Ergenekon, Seldag` O‘zalp “O‘zingni ko‘rsat, turk qizi – Afet Inan” asarini va Volkan Payasli, Olchay O‘zkaya “Afet Inan: Tarixga guvoh va tarixga bag‘ishlangan bir umr” kabi bir qator asarlar yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Afetinan'in Cenevre Günleri ve Tarih Çalışmaları” (2016-yil 14-avgust). 2016-yil 15-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 20-avgust.
2. “Prof. Dr. Afet İnan, Yayına Hazırlayan Arı İnan, Remzi Kitabevi, İstanbul 2005, Prof. Dr. Afet İnan adlı kitabı özetleyen Özge Yücel” (2018-yil 11-oktyabr). 2009-yil 4-mayda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 20-avgust.
3. Prof. Dr. Afet İnan, Yayına Hazırlayan Arı İnan, Remzi Kitabevi, İstanbul 2005, Prof. Dr. Afet İnan adlı kitabı özetleyen Özge Yücel, <http://www.turkhukuksitesi.com/showthread.php?t=35051>
4. Prof. Dr. Afet İnan, Yayına Hazırlayan Arı İnan, Remzi Kitabevi, İstanbul 2005, Prof. Dr. Afet İnan adlı kitabı özetleyen Özge Yücel, <http://www.turkhukuksitesi.com/showthread.php?t=35051>
5. Atatürk'ten Mektuplar / 13-Z-235. Prof. Dr. Ayşe Afet İnan YENİ ZAMANLAR SAHAF (2. El Kitaplar). 1989.
6. Atatürk'ten Mektuplar / 13-Z-235. Prof. Dr. Ayşe Afet İnan YENİ ZAMANLAR SAHAF (2. El Kitaplar). 1989.
7. Turk xalqining buyuk farzandi Ota-turk, T., 1998; Qosimov A., Turkiya, T., 1992.
8. Life And Works Of Piri Reis Prof. Dr. Ayşe Afet İnan TÜRK TARİH KURUMU. 2008. <https://www.kitapyurdu.com/>.
9. Cumhuriyetin 50. Yılı İçin Köylerimiz. Prof. Dr. Ayşe Afet İnan TÜRK TARİH KURUMU. 1978. B-3.
10. Mimar Koca Sinan. Afet İnan TÜRK TARİH KURUMU. 2021. B-7.

Chotmurodov Umar - TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLARI FAOLIYATIGA OID AYRIM MA'LUMOTLAR.....	72
Bahodirova Robiya Ikrom qizi - UBAYDULLAXON MA'NAVIY MEROSIDA ILM VA IYMON UYG'UNLIGI: MIR ARAB MADRASASI MISOLIDA.....	76
O'rinboyeva Muslima Baxtiyor qizi - XORAZM XONI ABULG'OZIY BAHODIRXON VA UNING "SHAJARAYI TURK" ASARI.....	83
Ne'matov Xumoyun To'lqin o'g'li – ANQARA JANGIDAN SO'NG AMIR TEMURNING USMONIYLAR SULOLASI VAKILLARIGA NISBATAN QO'LLAGAN SIYOSATI	86

TARIXIMIZDA QAHRAMON AYOLLAR: HAYOTI VA SIYOSIY FAOLIYATI

Kamoliddinova Omina Maxmud qizi - SAROYMULK XONIMNING TEMURIYLAR DAVLATIDA SIYOSIY VA MA'NAVIY FAOLIYATI.....	92
Nabijonova Iroda Abdumutalib qizi - JASORAT VA SIYOSAT CHORRAHASIDA: ZEBO G'ANIYEVA -TARIX SAHIFALARIDAGI QAHRAMON AYOL.....	96
Ahmadjonova Fotima Anvarovna - XIX ASR QO'QON XONLIGI SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIDA NODIRABEGIMNING TUTGAN O'RNI.....	100
G'ofurova Omina - TEMURIY MALIKALAR: FARZAND TARBIYASI VA SIYOSIY FAOLIYAT.....	103
Vaxobjonova Hadicha Shermuhammad qizi - BIBIXONIM – SADOQAT, ZAKOVAT VA BUNYODKORLIK TIMSOLI.....	108

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIKKA OID TADQIQOTLAR

Xolmatova Sarvinoz - TURK TARIXSHUNOSLIGIDA AFET INAN VA UNING TADQIQOTLARINI O'RNI.....	113
Ma'mirov Mashhurbek - AL-MA'SUDIY VA UNING TARIX ILMIGA QO'SHGAN HISSASI.....	119
Murodov Muhammadqodir Muhiddin o'g'li - QO'QON XONLIGI MADANIY HAYOTINI O'RGANISHDA HAZINIYXON IJODINING TUTGAN O'RNI.....	123
Nig'matillayeva Fotimaxon - MARKAZIY OSIYO ALLOMALARI ASARLARINING ZAMONAVIY MANBASHUNOSLIKDAGI O'RNI.....	128